

**UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING  
INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA  
MUSIQA FANINING AHAMIYATI**

**Zokirova Azizaxon Latip qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumta'lim maktab o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa fanining tutgan o'rni hamda uning psixologik-pedagogik asoslari yoritiladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar – ya'ni ta'lim sifatini oshirish, ijodiy va intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish kabi vazifalar doirasida musiqa fanining o'quvchilarning tafakkuri, eslab qolish, e'tibor va ijodiy fikrlash qobiliyatlariga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada musiqa darslarining metodik tashkiloti, pedagogik yondashuvlar va innovatsion usullar asosida intellektual rivojlanishga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** musiqa ta'limi, intellektual qobiliyat, umumta'lim maktabi, ijodiy fikrlash, Yangi O'zbekiston strategiyasi, pedagogik yondashuv, san'at va tarbiya.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "inson qadri uchun" tamoyili asosiy ustuvorlik sifatida belgilangan bo'lib, bu, eng avvalo, har bir insonning, xususan, yosh avlodning ma'naviy, intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim tizimini isloh qilish, ayniqsa, umumta'lim maktablarida bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini erta aniqlash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Zero, maktabda o'quvchilarning intellektual salohiyatini har tomonlama shakllantirishda musiqa fanining o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada musiqa ta'limining o'quvchilarning tafakkur, e'tibor, eslab qolish, ijodkorlik kabi intellektual jihatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi, bu jarayonda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va taraqqiyot strategiyasining amaliy natijalari yoritiladi.

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va ta'lim sohasidagi islohotlar. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 4-ustuvor yo'nalishida "Ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatli yoshlarni voyaga yetkazish" vazifasi ilgari surilgan. Bu yo'nalishda bolalarda yoshligidan boshlab tafakkur, dunyoqarash, estetik did va madaniyatga hurmatni shakllantirish muhim deb qaralmoqda. Aynan shu jihatdan musiqa fani katta pedagogik ahamiyat kasb etadi. Davlat rahbarining bir necha marotaba ta'kidlaganidek, san'at va madaniyatni rivojlantirish orqali xalq

ma’naviyatini yuksaltirish, o‘quvchilarning ichki dunyosini boyitish va intellektual salohiyatini oshirish mumkin. Bugun yangi maktab darsliklari va o‘quv dasturlarida ham musiqa faniga e’tibor kuchaymoqda, darslar faqat nazariyaga emas, balki amaliy va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilmoqda.

2. Musiqa fanining psixologik-pedagogik asoslari va ta’siri: Psixolog va pedagoglar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, musiqa o‘quvchilarning miya faoliyatini faollashtiradi, ayniqsa, qisqa va uzoq muddatli xotirani rivojlantiradi. Musiqa tinglash yoki ijro etish chog‘ida miya neyronlarining faolligi oshadi, bu esa bolalarda konsentratsiya, tez fikrlash, analistik tafakkur va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa bolalarning hissiy holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U stress va bosimni kamaytiradi, o‘zini erkin ifoda qilishga undaydi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar musiqa orqali o‘z hayajonlarini badiiy ifodalashga harakat qiladilar, bu esa ularning ichki dunyosini ochish imkonini beradi.

3. Musiqa ta’limining o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlariga bevosita ta’siri: Musiqa darslarining quyidagi intellektual yo‘nalishlardagi ijobiy ta’siri ilmiy jihatdan isbotlangan:

Tafakkurni rivojlantirish: Musiqa kompozitsiyalarining tuzilmasini tushunish, ritmni saqlash, ohangni eslab qolish orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

Eslab qolish qobiliyati: Qo‘sish matnlarini yod olish, notalarini o‘rganish orqali bolalarning xotirasi mustahkamlanadi.

Ijodiy fikrlash: Musiqa o‘quvchini o‘z fikrini erkin ifodalashga, yangi g‘oyalarni ilgari surishga rag‘batlantiradi.

E’tiborni jamlash: Musiqada kichik ohangiy o‘zgarishlarni ilg‘ashga urinish bolalarni diqqatli bo‘lishga o‘rgatadi.

Analitik yondashuv: Musiqa asarlarini tahlil qilish orqali o‘quvchi sabab-oqibat aloqalarini anglaydi.

Shunday qilib, musiqa fani faqat estetik didni shakllantirmaydi, balki aqliy rivojlanishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

4. Musiqa ta’limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar: Bugungi kunda maktablarda musiqa ta’limi yangicha metodikalarga asoslanmoqda. Interaktiv usullar, multimediya vositalari, onlayn platformalar orqali dars o‘tish o‘quvchilarda yuqori qiziqish uyg‘otmoqda. Jumladan: STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – musiqa san’atini texnologiya va matematika bilan integratsiyalash orqali intellektual ko‘nikmalarni oshirishga xizmat qiladi.

Individual yondashuv – har bir o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatini inobatga olgan holda darslar tashkil qilinadi.

Tadqiqot va loyiha faoliyati – o‘quvchilar mustaqil ravishda musiqiy asar yaratish, soz tayyorlash, milliy cholg‘ular haqida tadqiqot olib boradilar.

Bu yondashuvlar o‘quvchilarning o‘z fikrini ifodalash, yangi g‘oya ilgari surish, o‘rganilgan bilimlarni amaliyatda qo‘llash kabi intellektual jarayonlarni faollashtiradi.

5. Yangi O‘zbekistonda musiqa ta’limi va madaniyat siyosatining rivojlanishi: So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan musiqa va san’at sohasi rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat rahbarining qaror va farmonlariga ko‘ra:

Har bir hududda bolalar musiqa va san’at maktablari tashkil etilmoqda;

Maktablar uchun yangi musiqa asboblari, darsliklar, interaktiv vositalar bilan ta’minlash ishlari olib borilmoqda;

Ijodiy tanlovlар (masalan, “Yosh kompozitor”, “Ijodkor o‘quvchi”) orqali bolalarning iste’dodini aniqlash va rivojlantirish rag‘batlantirilmoqda.

Bu tashabbuslar umumta’lim maktablarida musiqa fanining sifatini oshirish, uning orqali bolalarning intellektual qobiliyatlarini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

6. Amaliy natijalar va tajribalar: Ba’zi hududlardagi maktablarda olib borilgan amaliy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, haftasiga 2 va undan ortiq marta o‘tkaziladigan sifatlari musiqa darslari o‘quvchilarning boshqa fanlardagi muvaffaqiyatlariga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan:

Musiqa mashg‘ulotlarida qatnashgan o‘quvchilarning matematik fikrlash ko‘rsatkichlari oshgan;

Diktant va nutq rivojlantirish bo‘yicha natijalar yaxshilangan;

O‘zini tutish madaniyati, jamoada ishslash ko‘nikmali rivojlangan.

Bularning barchasi musiqa fanining faqat estetik emas, balki intellektual rivojlanishdagi kuchli vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Umumta’lim maktablarida musiqa fanining intellektual rivojdagi o‘rnini beqiyosdir. U bolalarda nafaqat musiqiy eshitish, balki tafakkur, xotira, e’tibor, ijodiy yondashuv kabi qator aqliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar – intellektual salohiyatlari yoshlarni tarbiyalash, madaniyatni rivojlantirish, o‘quvchilarning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minlashda musiqa ta’limining roli yuksak baholanishi lozim. Kelajakda maktablarda musiqa fanini yanada innovatsion asosda tashkil etish, musiqiy tarbiya orqali intellektual salohiyatni kuchaytirishga xizmat qiluvchi metodikalar ishlab chiqish strategik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Musiqa ta’limining intellektual rivojlanishga ko‘rsatadigan ta’sir mexanizmlari. Musiqa ta’limi — bu nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki inson miyasining turli funksiyalarini faoliyatga jalb etuvchi murakkab jarayonlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, musiqa bilan shug‘ullangan o‘quvchilarda verbal va vizual xotira, mantiqiy tafakkur, fazoviy tasavvur, e’tibor va ijodiy fikrlash qobiliyatları boshqalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bu xususiyatlar ayniqsa o‘smir yoshidagi o‘quvchilar uchun dolzarb bo‘lib, ular shaxs sifatida shakllanishda mustahkam intellektual poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa — o‘quvchining hissiy kechinmalarini ifodalash imkonini yaratadi. Aynan shu orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni, murakkab ijtimoiy muhitda o‘zini tutishni, muammolarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, musiqa fanida ishlataladigan ritmik mashqlar, qo‘sinq kuylash va cholg‘u asboblarida chalish amaliyoti bolalarning motorik harakatlarini takomillashtiradi va ularning miya faoliyatida neyron bog‘lanishlarning kuchayishiga olib keladi.

Intellektual salohiyat va musiqiy ijodkorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

O‘zbekiston pedagogik tajribasida musiqa faniga ko‘proq estetik ta’lim sifatida yondashilgan bo‘lsa-da, hozirgi kunda bu fan o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Masalan, ijodkorlik bilan bog‘liq intellektual ko‘nikmalar — muammoni yechish, yangi g‘oya ishlab chiqish, alternativ fikrlash va tahliliy yondashuv kabi jihatlar musiqa darslarida muntazam rag‘batlantiriladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ta’lim tizimida innovatsiyalarni joriy qilish, har bir o‘quvchining individual salohiyatini ochishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu esa musiqiy ijodkorlikni rivojlantirish orqali intellektual qobiliyatni oshirishni zamon talabi darajasiga olib chiqadi.

Fanlararo integratsiya: musiqa va boshqa fanlar uyg‘unligi: Musiqa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi o‘quvchilarning umumiy bilim darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa matematika va chet tillari kabi fanlar bilan bog‘liq holda o‘quvchilar o‘rtasida musiqiy ritmlar orqali sanash, xor kuylashda fonetik talaffuz, she’riy ifoda bilan til o‘rganish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu orqali nafaqat ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi, balki bilimlar tizimlashadi. Masalan, xor ijrosida bir nechta ovozning uyg‘unligi, ritm va tembrni muvofiqlashtirish, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash, mas’uliyat va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Aynan ana shu jihatlar o‘quvchining umumiy aqliy salohiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalar va musiqa darslari: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi musiqiy ta’limda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron sintezatorlar, raqamlı nota dasturlari, musiqa tahlil qilish platformalari, mobil ilovalar orqali musiqa darslari yanada interaktiv va samarali bo‘lmoqda. Bu esa o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni o‘z ustida ishlashga undaydi. Masalan, darsda “Soundtrap”, “MuseScore”, “GarageBand” kabi ilovalardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat musiqiy bilimlarini, balki kompyuter savodxonligini, texnik tafakkurini ham rivojlantiradi.

Oila va mакtab hamkorligi: Oila bilan maktab o‘rtasidagi samarali hamkorlik o‘quvchilarning musiqiy va intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Uyda musiqa tinglash, birgalikda qo‘sinq kuylash, bolani musiqiy to‘garaklarga jalb qilish kabi chora-tadbirlar o‘quvchining mакtabdagи bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida mакtab va oila

hamkorligini ta’lim sifati uchun muhim omil sifatida belgilanganligi ushbu fikrni yanada kuchaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, musiqa ta’limi o‘quvchilarning faqatgina estetik dunyoqarashini emas, balki ularning fikrlash, eslab qolish, muammolarni yechish, o‘z fikrini bayon qilish kabi intellektual ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan ana shu salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun zamin yaratmoqda. Shu boisdan ham umumta’lim maktablarida musiqa fanining o‘quv dasturlaridagi o‘rni va sifatini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”.
2. Nematov, B. (2022). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Abdullaeva, M. (2021). “Musiqa darslarining o‘quvchilarning tafakkuriga ta’siri”. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, №3, 45–49-betlar.
4. Gardner, H. (2006). Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books.
5. Axmedova, G. (2020). “Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limining psixologik asoslari”. O‘zbekiston pedagogika jurnali, №1, 21–26-betlar.
6. Azizzoxo‘jaeva, N.N. (2019). Ta’limning zamonaviy metodlari. Toshkent: O‘qituvchi.
7. UNESCO. (2010). The Power of Music: Its Impact on the Intellectual and Social Development of Children. Paris: UNESCO Publishing.